

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi
№ _____
2015 - y. "____" _____

Vazirlikning 2015 - yil "____"
_____ dagi _____ sonli
buyrug'i bilan tasdiqlangan

XOR VA XORSHUNOSLIK

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi : 110000 - Pedagogika
Bakalavriat yo'nalishi: 5111100 - Musiqa ta'limi

TOSHKENT- 2015

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2015-yil "____" _____ - son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: M.R.Ilhomova - "Musiqqa ta'limi" kafedrasida katta oqituvchisi

Taqrizchilar: Lutfullayev A.K. - O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori

Xalilov F.N.- Nizomiy nomidagi TDPU professori p.f.d.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2015 - yil «__» _____ dagi ____ - sonli bayonnoma).

KIRISH

Mazkur kursda xor va xorshunoslikning nazariy va amaliyotdagi xor ijrochiligi va uning taxlili. Xorda kuylash qonun-qoidalari, xor ovozing to'g'ri sozi va ansamblda kuylash malaka va usullari. Yevropa xor vokal-simfonik janrlarining kelib chiqish tarixi va rivojlanishi. O'zbekistonda xor janrini boshlanishi va rivojlanishi. Professional va xalq xorlarini tashkiliy asoslari. Xor turlari va xillari haqida tushuncha. Xor ovozlari va uni tarkibi, vokal xor texnikasi malakalarini egallash. Xor va xorshunoslik ishini tashkiliy asoslari.

Xorga rahbarlik qilish, xor asarlarini taxlil qilish malakalarini egallash. Xorda kuylash jarayonida ijro jarangiga, ansambl, yaxshi soz, nafas olish, hamohanglikka erishish, badiiy ifoda vositalaridan o'z o'rnida foydalanish, ko'nikmalar haqida amaliy tavsiyalar berilgan.

Amaliy mashg'ulotlarda esa xor jamoasini tuzish va uni boshqarish. Xorni taxlil qilish va ijro etish, bilim malakalari kabi uslublardan foydalanish malakalarini egallaydilar.

Fanning maqsadi va vazifalar

Xor va xorshunoslik fanining asosiy **maqsadi** xor va xalq qo'shig'chiligi bo'yicha talabalarining shu kasbga xos o'quv malakalarini shakllantirish ularga jamoa bo'lib kuylash olish va uni boshqara olish texnologiyasi bo'yicha mukammal bilim berish va jamoaga rahbarlik qila olish xususiyatlarini singdirishdan iborat.

Fanning **vazifalari**: Kursni xor va xorshunoslik darslarida amalga oshiriladigan bir qator vazifalarni belgilash mumkin: xor qo'shig'chiligiga xos uslublarda kuylash imkoniyatiga ega bo'lish; jamoa bo'lib kuylash tabiati, didaktik tamoyillari va boshqa qonuniyatlarni bilib olish; xor asarlari repertuarlari bilan bevosita tanishish va ularni tanlash bo'yicha yuksak badiiy didga ega bo'lish; jamoada kuylash va u bilan ishlash jarayonida inson organizmida yuz beradigan psixo-fiziologik kechinmalarni chuqur his qilish va unga ko'nikma hosil qilish; jamoali qo'shig'chilik xonandasi va rahbariga qo'yiladigan talablarni bilish va unga amal qilish.

Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Bakalavr:

- xor jamoalarini tashkil etish ko'nikmalarini egallash;
- xorga dirijyorlik qila olish malakalarini egallash;
- ovoz va uning imkoniyatlaridan foydalana bilish;
- badiiy ijrochilikning asosiy va har xil shakl, janr yo'nalishlari ijrosini bilish bo'yicha **tasavvurga ega bo'lishi**;
- xor ijrochiligining asosiy xususiyatlari (tem'-surhat, xarakter, ovoz yuritish, intonatsiya, nyuansirovka va boshqalar); xorda badiiy ifoda vositalari (shakl, lad-tonallik, metro-ritmik tuzilma, garmoniya), xor turlari (akademik va xalq xorlari),

xor turlarini farqlash (bolalar xori, ayollar xori, erkaklar xori, aralash xor, unison, ko`p`ovozlik xor), xorda ansambi, musiqiy soz, talaffuz) xor sanhatining nazariy asoslari, dirijyorlik qo`l harakatining ifoda vositalari kabilarni ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo`llay olishi;***

- "Xor va xorshunoslik" fanidan xor sanhatining yaratilish tarixi, xorshunoslikning nazariy tamoyillari, asar va shehr mualliflari haqida muhlumotlar, asar mazmuni, ovozlar bo`linishi, ularning fiziologik-`sixologik xususiyatlarini bilish;

- xorda kuylash jarayoni, xor re`ertuarlarini o`timal tanlash, ovozlar xususiyatiga ko`ra asarlarni ajratib olish;

- talabalar xorida tanlangan asarlarni qoidalar asosida kuylash, ovozlar xususiyatiga ko`ra disfoniya yo`l qo`ymasdan ovozlar bilan alohida ishlash va xor jamoasiga rahbarlik qilib boshqara olish ***ko`nikmalariga ega bo`lishi kerak***

Fanning o`quv rajasidagi boshqa fanlar bilan o`zaro bog`liqligi va uslubiy jihatidan uzviyligi

Mazkur fanlar 2,3,4 semestrlarda o`qitilib «Xor va xorshunoslik» fanini o`zlashtirish uchun talabalar: vokal ijrochiligi, dirijyorlik, solfedjio, musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, garmoniya, cholg`u ijrochiligi, pedagogika, psixologiya va boshqa musiqaga oid bo`lgan fanlardan tegishli bilim, malaka va ko`nikmalarga ega bo`lish lozim.

Fanning ta'limdagi o`rni

Xor va xorshunoslik fani musiqa ta'limi o`quv jarayonida o`qitiladigan fanlar ichida talabalarning kasbiy bilim malakalarini takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi .Ush bu fanda talabalar o`zlarining ovoz diapazonlariniva xor asarlaridagi partiyalarini mukammal o`zlashtirib,xar bir badiiy asarning emotsional ifodali ovozlar bilan ishlash texnologiyalarini qo`llanishi bo`yicha zaruriy bilimlarni egallaydilar.Ush bu fanning o`rni shundan iboratki musiqa o`qituvchilarini xor jamoasi bilan ishlashda o`zlarning bilim malakalarini takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Fanni o`qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Kursni o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalari, interaktiv usullar: «Blits» o`yin, «FSMU», «3x4», «Aqliy xujum», «Elpig`ich», «Chinni gul», «Kuchsiz zanjir» kabilardan foydalanish. Lingafon apparatlari, kompyuter texnikasi, magnit yozuvlari, plastinkalar, test savollari, tarqatma materiallar, xor asarlaridankontsert dasturlaridan foydalanish lozim bo`ladi.

ASOSIY QISM

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar xor asarlarini kuylash va unga dirijyorlik qilish ko'nikma-malakalarini o'rganadilar. Xordagi ijrochilarni bir-biriga qovushtirib, ularning bir hil kuylashlarini ta'minlash xor rahbarining asosiy vazifalaridan biridir. Talabaning birinchi galdagi vazifasi xorda bir-biriga quloq solish, to'g'ri talaffuz va intonatsiya qilish, dirijyorning har bir jestiga hozirjavob bo'lishdir. Partiyada kuylovchi talabaning boshqa partiyalarni tinglash, ansamblda, garmonik va polifonik to'g'ri ijro etishni ta'minlash zarur. Asarlarning har-xil xarakter, tematika va syujetda bo'lishiga ahamiyat berish kerak. Talabalarni akademik usulda kuylashga o'rgatish lozim. Kuylashning har xil uslublarini (legato, non legato, staccato, marcato, sf, subito piano, subito forte, crescendo, diminuendo)

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari:

«Istiqlol taronasi» - Q.Mamirov.

“Duhtari sanam”

“Talabalar qo'shig'i”

“Yallama yorim”

Xor asarlarini taxlil qilish, o'rgatish, jummalarni aniqlash. Dinamik tuslar (nyuanslar) xorda nafas olish uslublari. Tovush hosil qilish malakalari. Ohangni yurgizish usullari, tovush avj qoidalariga rioya qilib kuylash malakalarini shakllantirish va qo'shiq aytishga tayyorlash masalalari ustida ishlash uslublarini talabalarga o'rgatish.

«G'uncha labi» - B.Umidjonov qayta ishlagan o'zbek xalq qo'shig'i.

«Ilila yor» - B.Umidjonov qayta ishlagan o'zbek xalq qo'shig'i.

«Muzika» - M.Burxonov qayta ishlagan qoraqalpoq qo'shig'i, Berdax so'zi. 6/8,9/8.

«Yakkadir Toshkent» - B.Umidjonov xor uchun qayta ishlagan tojik xalq qo'shig'i.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limni talabalar tomonidan mustaqil ijro shakli sifatida tashkil etiladi. Musiqiy kontsert dasturlari, teatr va sahna asarlarini kuzatish shakllari orqali o'rganilayotgan asarlar ustida ish olib boriladi.

Darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

Xor va xorshunoslik fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Badiiy asarlarni estetik-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni kuzatib borish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish:

Tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari

Xorshunoslik kursi, maqsad va vazifalari.
Xor ijrochiligining kelib chiqishi tarixi (XVI-XVII asrlar).
Xor qo'shiqchiligi uyushmalarning paydo bo'lishi.
O'zbekistonda xor san'atining rivojlanishi. O'zbek ashulachilik uslublari.
Xor ijrochilari tashkiloti. Xavaskorlik, professional xorlarni tashkil topishi.
Ovoz apparati tuzilishi. Vokal-xor texnika elementlari.
«Chamanda gul» - B.Umidjonov qayta ishlagan.

Asarlar yuzasidan akadem kontsert

«Xayroning bo'lay» - V.Shpilov qayta ishlagan.
«Kuldi Zarafshon» - V.Shpilov qayta ishlagan.
«Ililla yor» - B.Umidjonov qayta ishlagan.

Asarlar yuzasida amaliy ijro

«Gal bari» - B.Umidjonov qayta ishlagan.
«Olmacha anor» - B.Umidjonov qayta ishlagan.
«Bibigul» - B.Umidjonov qayta ishlagan.

O'tilgan asarlar ijrosi nazorati

«Yorlarim» - M.Burxonov qayta ishlagan.
«Go'zal yorga» - M.Burxonov qayta ishlagan.
«Ayriliq» - M.Burxonov qayta ishlagan.

Dasturning informatsion - uslubiy ta'minoti

Mazkur fanlarni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot - kommunikatsion texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutiladi:

- Xor fanlari bo'yicha nazariy bilimlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari saytlaridagi elektron darsliklar namunalaridan foydalanish;
- o'rganiladigan asarlar ijrosi yozilgan musiqiy disketlar, CD, DVD, MP3 va magnitafon lentalar;
- musiqiy filmlar yozilgan xujjatli disklar;

- O'zbekiston radiosida saqlanayotgan kamer xori, xor kapellasi, xor jamoalari ijrosidagi asarlar namunalaridan foydalanish;

- talabalarda badiiy ijrochilikni shakllanishiga, musiqiy did va bilimlarini kengaytirishiga asos bo'ladi.

Didaktik vositalar

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

video – audio uskunalar- video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidaqi proektor, DVD – discovod, Web – camera, video ko'z.

Foydaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Б.А.Самарин «Хоровидение и хоровая аранжировка». Учебная пособие. Москва. 2002 г.
2. R.N.Muxitdinova. «Xorshunoslik asoslari». Toshkent. TDPU. 2008 yil.
3. Л.И.Уколова. «Дирижирование». Москва. Владос. 2003 г.
4. G.Sharipova “Musiqqa va uni o'qitish metodikasi” Toshkent 2006 yil

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O.Sodiqov. «Xor partiturasini o'qish». G'.G'ulom nomidagi nashriyot uyi. Toshkent. 2004 yil.
2. J..T.Shukurov. «Dirijyorlik». Toshkent. 2006 yil.
3. «Musiqqa ta'lim va ma'naviyat». Toshkent. 1998 yil.
4. K.Azimov. «O'zbekiston dirijyorlari». Toshkent. 2001 yil.
5. “O'zbekiston vatanim manim” to'plam 1, 2, 3, 4 qismlar. Toshkent, Mehnat, 1997

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. [tdpu-INTRANET. Ped.](#)

